

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

29-mavzu: “Sohibqiron Amir Temur”

Dars maqsadi: Ushbu mashg‘ulot davomida 5-8-sinf o‘quvchilarning avvalgi o‘quv yillardagi to‘plagan bilimlarini takrorlash, ayni paytdagi darslik ma‘lumotlariga mutanosib ravishda qo‘shimcha ma‘lumotlar berish, badiiy yondashuv orqali bilimlarni charxlash maqsad qilingan. Bilamizki, maktabda turli fanlar orqali ham bu ajdodimiz haqida bilimlar berib boriladi. Ushbu “Kelajak soati” orqali esa bilimlarning qay darajada o‘zlashtirilganligiga ham ahamiyat qaratiladi. Bundan tashqari darslikdan biroz chetga chiqib, qiziqarli ma‘lumotlar bilan o‘quvchilarni jalb qilishga harakat qilinadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda Amir Temur haqidagi bilimlarini qay darajada ekanligini aniqlash;
2. Buyuk sarkarda Amir Temur haqidagi o‘quvchilarning fikrlarini bilish va ularni tanqidiy tomondan mavzuga yondashuvlarini kuzatish;
3. Tarixiy faktlarni bugungi atrofimizdagi hodisalarga bog‘lab o‘quvchilarda mavzu doirasida kengroq mushohada qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
4. O‘quvchilarda mavzuga doir bilimlarini boyitishga erishish va Amir Temur haqida aniq ma‘lumotlarni mustahkam o‘zlashtirishlarini ta‘minlash.

Asosiy g‘oyalar: Bayram tadbirlarida, tarix darslarida Amir Temur haqida ma‘lumot olish va bilimlarni oshirish imkoni bor. Bu o‘quvchilarga Amir Temur haqida birmuncha yaxshi bilimlar ham bera oladi. Ushbu “Kelajak soati” orqali ularga bilimlarni kengaytirish, bor bilimlariga tanqidiy qarash orqali e‘tibor qilmagan jihatlariga yetib borish maqsad qilingan.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

1. O‘quvchilar Amir Temurga aloqador ma‘lumotlarni bilib oladi.
2. Amir Temurni nafaqat davlat rahbari sifatida, balki bunyodkor va adolatparvar hukmdor sifatida ham ham yaxshilab o‘zlashtiradi.
3. Amir Temur haqida o‘rganilgan bilimlardan kelib chiqib, o‘quvchilarda mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasi shakllanadi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

1. Ajdodlarni e‘zozlash hissini tarbiyalaydi.
2. Ajdodlarni qadrlash va o‘z yaqinlarining hurmatini joyiga qo‘yish hissi shakllanadi.
3. Ma‘naviy merosga hurmatsizlikdan chekinish va adabiy hamda tarixiy merosimizga nisbatan mas‘uliyatli munosabat paydo bo‘ladi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

1. Olgan bilimlar vositasida voqelikni tahlil qilish, sog‘lom tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalari shakllanadi.

2. Olgan bilimlarini solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

3. Olgan bilimlari yuzasidan fikr bildirish, sog‘lom bahs yuritish, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

1. Jamiyatda Amir Temur haqidagi fikrlarni tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

2. Hozirgi kunda Amir Temur hayoti va ijodini o‘rganish, keyingi avlodga meros qoldirishga qaratilgan ishlarni tushunish va hissa qo‘shish ko‘nikmasi shakllanadi.

Metapredmet: bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Dars davomida o‘quvchilarning tarix, adabiyot, geografiya kabi fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

- Bolalar bilimini turli kasb egalari bilan bog‘laydi (texnologiya);
- Bola ilm haqida hikoya tinglaydi va maqollar yod oladi (adabiyot);
- Video va kontentlarni ko‘radi va undan xulosa chiqaradi (san’at va media savodxonligi);
- bilimning hayotiy misollarini tahlil qiladi (muloqot) – bu esa metapredmet yondashuvining namunasidir.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

ASOSIY MASHG'ULOT SSENARIYSI

I. KIRISH – MOTIVATSION QISM (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga qo'lida oddiy pult bilan kiradi

O'qituvchi: Salom, aziz o'quvchilar.

Qo'limdagi oddiy pult. Tasavvur qiling, qo'lingizda shunday pult bor – u bilan siz hamma narsani boshqara olasiz. Televizorning kanalini almashtirasiz, ovozini pasaytirasiz, filmni ma'lum joyda to'xtatib qo'yasiz. Lekin bitta muammo bor: siz pultni ishlatishni bilmaysiz. Shunda nima bo'ladi?

O'quvchilar kuladi va javob beradi.

O'qituvchi: Demak, boshqarish uchun faqat imkoniyatning o'zi yetarli emas, to'g'ri qaror ham kerak. Agar sizda to'g'ri qaror qabul qilish uchun bilim, iroda va yaxshi niyat bo'lmasa, imkoniyatning o'zi foydasiz.

Tasavvur qiling, sinfingizda doim oldinda yuradigan, boshqalarga yordam beradigan, tartibni saqlaydigan va kerak bo'lsa hammaga yo'l ko'rsatadigan o'quvchi bor. U qiyin vaziyatlardan qo'rqmaydi, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bunday bolani kim deymiz?

O'quvchilar: Yetakchi, lider...

O'qituvchi: To'g'ri! Bundan 690 yil avval butun bir mamlakat, xalq uchun shunday odam paydo bo'ldi. U Amir Temur bobomiz edi.

Bugun biz Amir Temur bobomiz tavalludining 690 yilligini nishonlash arafasida turibmiz. U ham bir paytlar sizlar kabi bola bo'lgan, lekin boshqalardan nimasi bilandir farq qilgan. Xo'sh, nimasi bilan?

O'quvchilar javoblari tinglanadi.

O'qituvchi: Hayotda hamisha ikki yo'l bo'ladi – biri oson, biri to'g'ri. Kimdir oson yo'lni tanlaydi, kimdir esa qiyin bo'lsa ham to'g'ri yo'ldan boradi. Amir Temur aynan ikkinchi yo'lni tanlagan insonlardan edi. Shuning uchun ham u oddiy odam bo'lib qolmadi, balki butun dunyoga tanilgan shaxsga aylandi.

Agar bugun Amir Temur siz bilan bir sinfda o'qiganida, sizningcha u qanday bola bo'lardi? Darsni yaxshi o'qiydiganmi, yetakchimi, do'stlariga yordam beradiganmi?

O'quvchilar fikr bildiradi va shu orqali Amir Temur obrazini o'ziga yaqinlashtira boshlaydi.

O'qituvchi: Demak, bugun biz Amir Temur bobomiz haqida gaplashamiz. U qanday qilib kuchli, adolatli hukmdor bo'ldi va boshqalarni qanday qilib ortidan ergashtirdi? Nega uning nomi hanuzgacha eslanadi – mana shu savollarga javob topamiz.

Avvaliga Amir Temur bobomizning bugungi kunimiz uchun ahamiyatini his qilsak. Bugungi kunda buyuk bobomiz hayoti va faoliyatiga ko'p murojaat qilinadi.

Davlatimiz tomonidan buyuk ajdodimizning merosiga katta hurmat ko'rsatiladi. Hozir shu haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Amir Temur siymosi milliy o'zlik, g'urur timsoli!

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/498

Video muhokama qilinadi (1-2 daqiqa).

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi doskaga katta qilib savol yozadi:

“Amir Temur nima uchun buyuk shaxs?”

O'qituvchi: Bugun biz mana shu savolga javob topish uchun Amir Temurning 4 ta muhim tarixiy fazilatini tahlil qilamiz. Demak, boshladik.

Doskaga yozadi: Amir Temur – muvaffaqiyatli sarkarda.

O'qituvchi: Amir Temur qiyinchilikdan qo'rqmagan. Yurtini ozod qilgan, katta davlat qurgan, hamma ishni adolat bilan boshqargan.

Lekin shuni unutmangki, har bir buyuk insonning hayoti xuddi oddiy insonlarniki kabi bolalikdan boshlanadi. Amir Temur ham bir paytlar sizlar kabi yosh bola bo'lgan. U ham do'stlari bilan o'ynagan, maktabga borgan, yiqilgan, turgan... Lekin uning yuragida katta orzular yashagan. Keling, hozir birgalikda uning bolaligiga nazar tashlaymiz – buyuk Sohibqironning bolaligi haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Temurning bolaligi

https://youtu.be/tWM0OxRvs_k

O'qituvchi: Tasavvur qiling, siz yashayotgan hududda tartib yo'q. Har kim o'zicha bilganini qiladi, birovning molini talaydi, o'ldiradi, bolasini o'g'irlab ketadi, hech kim bunga qaramaydi, odamlar doimiy xavf ostida yashaydilar. Shunday vaziyatda odamning kuchli bo'lishining o'zi yetadimi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Amir Temur aynan shunday vaziyatda yashagan. Lekin u boshqalardan farqli ravishda faqat kuch yig'magan, u tizim yaratgan. U har bir yurishni reja bilan qilgan, har bir qarorni o'ylab qabul qilgan. Shuning uchun u janglarda yutgan.

Agar kuch faqat urush uchun ishlatilsa, bu yetarlimi?

O'quvchilar: Yo'q.

O‘qituvchi: Amir Temurning yutug‘i shundaki, u aqlli xalqaro siyosat va mohir janglar orqali katta hududlarni birlashtirdi, kuchli davlat qurdi va eng muhimi – yurtni bosqinlardan himoya qildi. Odamlar qo‘rqmay yashay boshladi, savdo rivojlandi, hayot iziga tushdi. Demak, Amir Temurning xalqqa qilgan eng katta foydasi, u haqiqiy sarkarda sifatida kuchli davlat qurdi, tinch va farovon hayot taqdim etdi.

Yurtimizda Amir Temurga o‘xshagan mard, jasur va aqlli avlodni tarbiyalash uchun bir nechta maxsus maktablar ochilgan. Ular “Temurbeklar maktabi” deb nomlangan. Hozir shu maktablardan biriga videosayohat qilamiz.

Vizual kontent

Shahrisabdagi Temurbeklar maktabidamiz!

<https://youtu.be/EPmMcmnJWaU>

Doskaga yozadi: **Amir Temur – adolatli davlat arbobi.**

O‘qituvchi: “Davlatni nima ushlab turadi?”

O‘quvchilar turli javob beradi.

O‘qituvchi: Agar rahbar kuchli bo‘lsa-yu, lekin adolat qilmasa, odamlar qancha vaqt chidab yashaydi?

O‘quvchilar: Uzoq emas.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Amir Temur shuni juda yaxshi tushungan. U davlatni faqat kuch bilan emas, adolat bilan boshqargan. “Temur tuzuklari”da har bir ish tartib va qonun bilan hal qilinishi lozimligi aytilgan.

Demak, davlatni shunchaki kuch emas, adolat va ishonch ushlab turadi.

Hozir Amir Temur qurgan davlat va Temur bobomiz shaxsi haqida tarixchi olim Sanjar G‘ulomovdan qiziqarli ma’lumotlarni eshitamiz. Monitorga diqqat qaratamiz.

Vizual kontent

“Amir Temurdan bizga nimalar qoldi?” – temurshunos olim mulohazalari

<https://youtu.be/ePvMOCTTAnU>

O‘qituvchi doskaga yozadi: **Amir Temur – taraqqiyparvar podshoh.**

O‘qituvchi: Agar siz kuchli davlat qursangiz, keyin nima qilasiz – uni shunchaki saqlaysizmi yoki rivojlantirasizmi?

O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Amir Temur o‘z saltanatini shunchaki tashqi dushmandan himoya qilib, mustahkam ushlab turish bilan kifoyalanmagan, u mamlakatni

rivojlantirgan. U ilm-fanni davlatning eng muhim kuchi deb bildi. Samarqand va Buxoroni ilm markaziga aylantirdi. Ya'ni madrasalar qurdi, kutubxonalar ochdi, turli zaif va parokanda yurtlardagi olimlarga barqarorlik va kafolat berib Samarqandga chorladi.

Tasavvur qiling, turli mamlakatlardan Samarqandga olimlar kelmoqda, yangi g'oyalar paydo bo'lmoqda, kitoblar yozilmoqda. Endi Amir Temur saltanati poytaxti oddiy shahar emas, Sharqning bilim markaziga aylandi.

Aytinglar-chi, nima uchun aynan shu davr Ikkinchi renessans, ya'ni "Uyg'onish davri" deb ataladi?

O'quvchilar fikr bildiradi.

O'qituvchi: Chunki ilm rivojlangan joyda yuksalish bo'ladi. Aynan temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Bobur, Navoiy kabi buyuk shaxslar yetishib chiqdi. Demak, haqiqiy rahbar o'z davlatini mustahkamlash uchun ilm-fanga e'tibor qaratadi. Bugungi davrimiz bilan parallelni his qilyapsizlarmi? Bugun ham O'zbekistonda Prezident maktablari, yangi universitetlar, kutubxonalar ochilmoqda, iste'dodli yoshlar qadrlanmoqda.

O'qituvchi doskaga yozadi: Amir Temur – bunyodkor hukmdor.

O'qituvchi: Inson qanday ishlari bilan tarixda qoladi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Amir Temur bu savolga amalda javob bergan. U ham asl, ham ko'chma ma'noda katta tarixni bunyod qilgan. Samarqandni, Buxoroni obod qilgan, ularga go'zallik va tartib bergan.

Bugun butun dunyoning e'tiboriga tushgan Go'ri Amir, Bibixonim madrasasi, Ko'ksaroy kabi obidalarni qurdirgan. Bular shunchaki binolar emas, Amir Temur saltanatining aqli, didi va kuchi natijasidir.

Nega buyuk odamlar nimadir quradi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Demak, buyuklar faqat o'z davrining odamlari bo'libgina qolmay, kelajakni ham ko'ra oladi, yana yuzlab yillardan keyin ham dunyo ahli bu yurtga havas qilishini o'ylaydi. Amir Temur ana shunday buyuklardan edi.

O'qituvchi doskaga to'rtta so'zni yozadi:

KUCH

ADOLAT

ILM

BUNYODKORLIK

O'qituvchi: Shu to'rt narsa birlashsa, nima paydo bo'ladi?

O'quvchilar: Buyuk davlat, tinchlik, taraqqiyot, tarix.

O'qituvchi: Mana shu – Amir Temur fenomeni bo'ladi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bugun biz Amir Temurning kuchi, adolati, ilmga e’tibori va bunyodkorligi haqida gaplashdik. Lekin eng muhim savol: bu bilim sizga nima beradi?

Tarixni bilish oson. Lekin qiyini undan to‘g‘ri xulosa chiqarishdir. Amir Temur tarixda yashagan, lekin uning fazilatlari bugun ham kerak. Bugun ham kuch kerak, lekin bu kuch har bir insonning o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi. Bugun ham adolat kerak, bu do‘stga ham, begona odamga ham bir xil munosabatda bo‘lish degani. Bugun ham iroda kerak, bu boshlagan ishni oxiriga yetkazish demak.

Sizda shu sifatlar bormi? Har biringizning ichingizda kichik bir kuch bor. Kimdadir u bilimda, kimdadir sportda, kimdadir yetakchilikda ko‘rinadi. Lekin bu kuch o‘z-o‘zidan foyda keltirmaydi. Uni o‘z ustingizda ishlab har kuni rivojlantirishingiz kerak.

Amir Temur ham bir kunda buyuk bo‘lmagan. U ham o‘z muvaffaqiyat yo‘lini kichik qarorlardan boshlagan. U ham har kuni o‘z ustida ishlagan. Shuning uchun u tarixda qolgan.

Tarixni eslab qolish shart emas, undan kuch olish kerak. Balki siz ham kelajakda kimlargadir namuna bo‘lasiz. Balki kimdir siz haqingizda ham “u boshqalardan farq qilgan” deydi. Hammasi bugungi qaroringizdan boshlanadi.

Kuchli bo‘lish – tanlov. Adolatli bo‘lish – tanlov. Harakat qilish – tanlov. Bugun shu tanlovni qiling.

KUCH – ADOLATDA!

Xayr, salomat bo‘linglar!

E’tiboringiz uchun rahmat!